

Kafedra haqida



“Davlat kadastrlari” kafedrasini mudiri

Muxtorov O'zbekxon Burxonovich

PhD, dotsent

Tel: 71/237-09-68

Email: u.muxtorov@tiame.uz

Kafedra «Yer resurslari va kadastr» fakulteti tarkibida bo'lib, 2017 yilda oldingi «Geodeziya va yer kadastr» kafedrasini tarkibidan ajralib chiqqan. Kafedra tarixiga nazar tashlasak, 2004 yilda oldingi «Geodeziya» va «Yer kadastrini» kafedralarini birlashtirilishi natijasida tashkil etilgan bo'lib, fakultetning asosiy ixtisoslashgan kafedralaridan biridir. Shuni alohida aytish lozimki, «Geodeziya» va «Yer kadastrini» kafedralari o'zlarining boy tarixiga ega. “Davlat kadastrlari” kafedrasini “Qishloq aholi yashash joylarini loyihalash va obodonlashtirish» nomi bilan 1949 yilda fakultetning asosiy ixtisoslashgan kafedralaridan biri sifatida tashkil etilgan. 1949 yildan 1982 yilgacha unga yetakchilik qilgan «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yer tuzuvchi», i.f.d., professor P.K.Taturning xizmatlari kafedrasini tashkil etish va har tomonlama mustahkamlashda benihoya katta bo'lgan. 1982-1992 yillari kafedraga i.f.n., dotsent B.I.Sibizov rahbarlik qilgan, 1992-1999 yillarda esa i.f.n., dotsent A.R.Bobojonov rahbarlik qildi. Kafedraga 2000-2004-yillarda t.f.n., dotsent I.M.Musayev rahbarlik qilgan bo'lsa, kafedraning keyingi yillarda rivojlanishi va kamol topishida unda faoliyat ko'rsatgan va ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning xissalari juda ham kattadir. Ular i.f.d., professor A.S.Chertovskiy, i.f.n., V.V.Beshenov, i.f.n. dotsent K.R.Rahmonov, katta o'qituvchi T.I.Ismoilov, dotsent P.M. Kunyavskiydirlar. 2004-2012 yilgacha kafedraga dotsent, t.f.n. I.M.Musayev rahbarlik qilib keldi. 2012-2016 yilgacha esa kafedrada i.f.n., dotsent Q.Raxmonov yetakchilik qildi. “Davlat kadastrlari” kafedrasini Geodeziya va geoinformatika kafedrasidan ajralib chiqqandan keyin, 2017 yil 2 sentyabrdan o'z faoliyatini boshladi. 2017-2023 yillarda kafedraga i.f.n. dotsent K.R.Rahmonov rahbarlik qildi. 2023 yil 31 avgustdan kafedraga iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, PhD, dotsent O'zbekxon Muxtorov rahbarlik qilib kelmoqda. Kafedra jamoasi o'zining diqqat e'tiborini yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bilan bir qatorda respublikamizda amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning asosi hisoblangan yer maydonlaridan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish, yer kadastrini, yer resurslarini boshqarish, shuningdek talabalar o'rtasida yuksak darajada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni bajarishga qaratgan. Kafedrasini chet mamlakatlardagi va respublikamizdagi oliy o'quv yurtlarining turdosh kafedralari, shuningdek ishlab-chiqarish hamda ilmiy-loyihalash tashkilotlari bilan aloqalari mustahkamlanmoqda. Jumladan, kafedrada “Innovatsion va kreativ yosh kadastrchi” talabalar ilmiy to'garagi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. To'garakda 20 nafar iqtidorli talabalar faoliyat yuritadi. Kafedra

jamoasi Finlandiya, Latviya, Litva, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Vengriya davlatlarining turdosh soha universitetlari bilan xamkorlik shartnomalari asosida professor - o'qituvchilar va talabalarning tajriba almashuvi, xalqaro ilmiy loyihalar, darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda ishtirok etib kelmoqdalar. Kafedra olimlari qayt etilgan chet el universitetlarida muntazam ravishda vebinar va treninglarni tashkil etib, mahorat darslari bilan qatnashib kelmoqdalar. Kafedrada 06.01.10 - Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi ixtisosligi bo'yicha doktorantura mavjud bo'lib, hozirgi kunga qadar 10 ga yaqini tahsil olishgan. Shundan 2 nafar doktorantlar PhD darajasini olish uchun dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha ishlarini olib bormoqdalar. Kafedra professor-o'qituvchilari respublikadagi va chet eldagi bir necha ilmiy markazlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatgan. Jumladan, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent Davlat texnika universiteti, Toshkent Arxitektura-Qurilish Universiteti, shuningdek, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi mutaxassislari va professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga o'quv-uslubiy qo'llanmalar ham yaratilishi yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda kafedra tomonidan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi va uning joylardagi boshqarma, bo'limlari, Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi, "Geoinnovatsiya markazi" DUK, "O'zdaverloyiha" Davlat ilmiy loyihalash institutlari bilan to'g'ridan to'g'ri ishlab chiqarish amaliyoti, talabalarning darsdan keyingi bo'sh vaqtlarini ishlab chiqarishga bog'lash, 5+1 dasturi doirasida amaliy mashg'ullotlarni tashkil etish hamda bitiruv oldi amaliyotini tashkil qilish bo'yicha ikki tomonlama shartnomalar rasmiylashtirilgan.

[Yer resurslarini boshqarish fakulteti](#) [O'qitiladigan fanlar](#) [Ilmiy ishlar](#) [Tadqiqotchilar](#) [Hamkorlar](#) [Kafedra xodimlari](#) [To'garaklar](#) [Dars jadvali](#) [Aloqalar](#)